

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimatov	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
B.S.Sobirov	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achildiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik.....	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish	544



UO'K: 781.73.94.(100-87)

**NOMODDIY MADANIY MEROS TARKIBIGA KIRGAN SHASHMAQOM JANIRIGA
AKSILOGIK MUNOSABATNING YUKSALISHI****ВОЗНИКНОВЕНИЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ОТНОШЕНИЯ К ЖАНРУ ШАШМАКОМ,
ВХОДЯЩЕМУ В СОДЕРЖАНИЕ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ****THE RISE OF AXIOLOGICAL ATTITUDE TO THE GENRE OF SHASHMAQOM, WHICH
IS INCLUDED IN THE CONTENT OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE**

Qirg'izov Iqboljon Imyaminovich 
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada glaballashuv jarayonlari dunyo xamjamiyatida nomoddiy madaniy merosga aksiologik yondashuv zaruratini yuzaga chiqarganligi. Shu bois nomoddiy madaniy merosni qadriyat sifatida keyingi avlodga bus butun sof bezavol xolatda yetkazish dolzarblik kasb etganligi. Bu jarayonlarda qadimiy va boy tarixga ega xar bir millat va shu millat vakillari tomonidan asrlar osha sayqalanib avloddan avlodga yetib kelayotgan urf-odatlar, xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini asrab avaylashda va bugungi kunda O'zbekiston tomonidan UNESCO Umumjahon merosi ro'yxatiga mahalliy ob'ektlarni kiritish ustuvor vazifa sifatida «Harakatlar strategiyasi» va «Taraqqiyot strategiya»larida belgilangan davlat qarorlari ham muxum ahamiyatga egaligi hamda "Nomoddiy madaniy meros" tushunchasiga ajdodlarimizdan bugungi kungacha yetib kelgan madaniy meroslarimiz jumladan shashmaqom haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В статье процессы глобализации породили в мировом сообществе необходимость аксиологического подхода к нематериальному культурному наследию. Вот почему важно передать нематериальное культурное наследие как ценность следующему поколению в его чистом виде. В этих процессах каждый народ с древней и богатой историей и представители этого народа на протяжении веков шлифуют и сохраняют образцы народного творчества и народного искусства, и сегодня Узбекистан включил местные объекты в Список всемирного наследия ЮНЕСКО в качестве приоритета. Для включения предметов большое значение также имеют государственные решения, определенные в «Стратегии действий» и «Стратегии развития», а понятие «Нематериальное культурное наследие» включает в себя наше культурное наследие, дошедшее до наших дней от наших предков.

Abstract

In the article, globalization processes have created the need for an axiological approach to intangible cultural heritage in the world community. That is why it is important to convey intangible cultural heritage as a value to the next generation in its pure state. In these processes, every nation with an ancient and rich history and the representatives of this nation polish over the centuries and preserve the examples of folk art and folk art, and today Uzbekistan has included local objects in the UNESCO World Heritage List. as a priority to include items, the state decisions defined in the "Strategy of Actions" and "Strategy of Development" are also of great importance, and the concept of "Intangible Cultural Heritage" includes our cultural heritage that has reached the present day from our ancestors.

Kalit so'zlar: nomoddiy madaniy meros, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar, shashmaqom, katta ashula, folklor, xalq og'zaki ijodi, navroz, sumalak.

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, орудия труда, артефакты, культурные пространства, шашмаком, большая песня, фольклор, фольклор, Навруз, сумалак.

Key words: intangible cultural heritage, tools, artifacts, cultural spaces, shashmaqom, big song, folklore, folklore, Navroz, sumalak.

KIRISH

Glaballashuv jarayonlari dunyo xamjamiyatida nomoddiy madaniy merosga aksiologik yondashuv zaruratini yuzaga chiqmoqda. Shu bois nomoddiy madaniy merosni qadriyat sifatida keyingi avlodga bus butun sof bezavol xolatda yetkazish dolzarblik kasb etmoqda. Bu jarayonlarda qadimiy va boy tarixga ega xar bir millat va shu millat vakillari tomonidan asrlar osha sayqalanib avloddan avlodga yetib kelayotgan urf-odatlar, xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini asrab avaylash har birimizning fuqorolik burchimizdir.

O'zbekistonning bu maqsadlarning 2030 yilga qadar belgilagan rejasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi 119-sonli qarori 5-ilovasida keltirilgan. Shundan 20 ta ob'ekt Umumjahon meros ro'yxatiga, Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga 5 ta va Jahon xotirasi dasturining xalqaro ro'yxatiga 5 ta element kiritilishi rejalashtirilgan. "Nomoddiy madaniy meros" tushunchasiga ajdodlarimizdan bugungi kungacha yetib kelgan madaniy meroslarimiz jumladan shashmaqom, katta ashula, falklor, xalq og'zaki ijodi, navroz, sumalak, kabilar kiradi.

Daslab "nomoddiy madaniy meros" tushunchasiga an'anaviy ravishda "xalq ijodiyoti" deb tarif berib kelganimiz. "Xalq ijodiyoti" tushunchasi zahirida o'zbek xalq raqs san'ati, musiqa san'ati, tomosha san'ati, milliy hunarmandchilik hamda xalq og'zaki ijodiyoti namunalari nazarda tutilgan. Konvensiyaga asosan "nomoddiy madaniy meros" tushunchasi "xalq ijodiyoti" ga qaraganda ko'proq janrlarni o'z ichiga qamrab oladi. Aslini olib qaraganda madaniy meros ikki muxum yo'nalishga ega bo'lib, bulardan biri moddiy madaniy meros, ikkinchisi esa nomoddiy madaniy meros ekanligi so'nggi yillarda Konvensiyalarda qabul qilinayotgan muhim qarorlar va dasturlar bilan isbotlanmoqda.

Shu o'rinda xar ikki yo'nalishna tarif berib o'tsak. Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, yodgorliklar va diqqatga sazovor joylar moddiy madaniy meros ob'ektlari hisoblanib, bu ob'ektlarning barchasini ko'z bilan ko'rish, qo'l bilan ushlab ko'rish, tasvirini suratga olish imkoni bor. Bundan farqli ravishda nomoddiy madaniy merosni ko'z bilan ko'rib, suratga tushirib qo'l bilan ushlab bo'lmaydi. Nomoddiy madaniy meros ham tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'ladi. Ularning tarkibiga esa urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar kiradi. Shu bois bizgacha og'izdan og'izga, ustozdan shogirtga o'tib kelgan xalq og'zaki ijodi namunalaridan "Shashmaqom" janri haqida fikr yurgazsak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shashmaqom (forscha - olti maqom) – "2003 yili "Shashmaqom musiqasi" YuNESKO tomonidan "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi" deb tan olindi va 2008 yildan boshlab YuNESKoning Representativ ro'yxatiga kiritildi" o'zbek va tojik xalqlari musiqa merosida markaziy o'rin tutgan maqomlar turkumi; maqom - ohang, parda, xang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan mumtoz cholg'u kuyi va ashulalar majmui. "Shashmaqom" atamasi dastlab 1923 yilda mashhur rus musiqashunos olimi Viktor Uspenskiy tomonidan "Olti musiqali poema. Shashmaqom" asarida qo'llanilgan. Mazkur cholg'u va ijro yo'l namunalari buxorolik maqomdon-ustozlar Ota Giyos Abdug'ani, Ota Jalol Nosirovlardan yozib olgan. Shuningdek, "Shashmaqom" atamasi Fitratning "O'zbek klassik musiqa tarixi" nomli kitobida ham qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Keyinchalik Shashmaqom B.Fayzullaev, F.Shaxobov va Sh.Sohibov (Shashmaqom, 5 tomlik. Moskva, 1950-1961), Yunus Rajabiy (Buxoro maqomlari, Toshkent, 1959; Shashmaqom, 6 tomlik. Toshkent, 1966-1975; O'zbek maqomlari. Shashmaqom. Toshkent: YuNESKO, 2007), A.Boboxonov (Shashmaqom. Berlin, 2010) yozuvlarida nashr etildi. Shashmaqom XVIII asrlarda 12 maqom tizimi (Duvozdax maqom) va Buxoro musiqiy an'analari negizida Markaziy Osiyoning yirik madaniy markazi bo'lmish Buxoroda shakllangan.

XVIII asrda Buxoroda yangi turkum Shashmaqom uzul kesil shakllandi. XIX asrda Xorazm maqomlari turkumi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari vujudga keldi. Keyinchalik Shashmaqom va boshqa turkumlar asosida maqom asarlarining yangi uslublari va ko'rinishlari zamonaviy talqinda rivoj oldi. Umumiy tuzulishi va turkumlarga bo'linishi, nomlanishi jihatidan Buxoro va Xorazm maqomlari bir-biriga yaqin turadi. Farg'ona-Toshkent maqomlarining ikki yo'nalishi orasida ham uzviy aloqalar mavjud. Og'zaki tarzda tarqalib kelaётgan maqomlar XIX asrning 80 yillarida yozib olindi. Xorazm maqomlaril turkumi, Dutor maqom turkumlari Komil Devoniy Xorazmiy tomonidan ixtiro etilgan tanburga moslangan o'n sakkiz chiziqli Tanbur chizig'illari notatsiyasi orqali yozib olinib, maqomlarni o'rganishda qimmatli manba sifatida qo'llanib keldi. Maqomchilik san'ati qonunlarini sharhlash, asoslash, musiqa nazariyasi va amaliyotiga oid masalalar XIX asrdan boshlab musiqiy risolalarda o'z aksini topdi.

Maqomlarning nazariy masalalari, mahalliy-lokal uslublari va o'zaro mintaqaviy munosabatlari, Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqomlari ichki qonuniyatlari (kuy, lad, ritm, shakl, usul va x.k) va ijrochilik uslublari ilmiy kitoblar va maqomlarda

PEDAGOGIKA

qayd etildi. Mustaqillik davri maqomchilar san'atida, uni ilmiy-nazariy va amaliy o'zlashtirilishiga e'tibor yana kuchaydi.

Musiqiy merosimizning ilmiy tafakkur asoslari nazariy yo'nalishlar ustida izlanishlar olib borgan Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabi, Darvishali Changiy va boshqa qator mualliflarning e'zgan ilmiy risolalarida musiqa madaniyatining qaysi jabhalariga ko'proq ahamiyat berilganligi va bu mualliflar yashagan davrdagi tarixiy shart-sharoitlar to'g'risida fikr yuritildi. Uyg'onish davridan to'xonliklar zamonigacha yashab ijod qilgan allomalarning musiqa borasida yaratgan ilmiy risolalari bizgacha yetib kelgan.

IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnaxr va Xurosonda ilm-fan, madaniyat va san'atning rivojlanishida bir qator olimlar o'zlarining ilmiy asarlari bilan jahonga mashhur bo'ldilar. Ular Al-Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy va boshqalar edi. O'rta asrlarda musiqashunoslik riyoziyot (matematika) ilmining bir qismi hisoblangan bo'lib, yetuk olimlar shu uslubda musiqaning nazariy tomonlarini ham tahlil qilishga intilganlar. Forobiy ham yetuk olim sifatida ushbu ishga qo'lgan yirik olimlardan biridir.

Sharq olamida Forobiydan keyin musiqa ilmi va sozshunoslik sohalarida qalam tebratgan yirik allomalardan biri Abdulqodir Marog'iydir. Marog'iy asarlari orasida musiqiyning ilmiy va amaliy asoslari hamda sozshunoslikka oid risolalarning eng e'tiborlisi Maqasid-ul alhon (kuydan maqsadlar) asari hisoblanadi. Bu asarda cholg'u asboblariga doir maxsus bob mavjud va unda Sharq xalqlarining (ahli Ajam nazarda tutiladi) mumtoz musiqasida e'tibor topgan 44 ta soz haqida muzokaralar yuritiladi. Forobiy va Marog'iyning cholg'ushunoslik ta'limotining bugungi kunda Sharq (Ajam) xalqlarida iste'mol qilinadigan musiqiy asboblar 48 bilan qiyoslashda, birinchi navbatda, mazkur olimlarning nazariy qarashlari, tushuncha va iboralar tizimidan xabar topish taqozo etiladi.

Kavkabiyning bizgacha ikkita musiqiy risolasi yetib kelgan. Birinchisi nasrda bayon etilgan ilmiy-nazariy yo'nalishdagi asar. Unda ilmiy advor ta'limoti Buxoro shart-sharoitidan kelib chiqqan shaklda bayon etilgan. Ikkinchisi ham aslida ilmiy risola. Lekin, u she'riy tilda tuzilgan. Zero, ilmiy ma'lumotlarni nazmda izhor etish odati oldin ham bo'lgan. Najmiddin Kavkabiyning Risolai musiqiy asari kirish, o'n ikki maqom (ya'ni fasl) va xotima qismlaridan iborat. Kirishda xush sado va xayrli ohang Allohning ne'mati ekanligi bayon etiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Shashmaqom - olti maqom turkumi bo'lib, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan, jami 250 dan ortiq turli shakldagi cholg'u va ashula yo'llaridan iborat. Shashmaqomning tashkil etgan maqomlarning har biri ikki - cholg'u (Mushkilot) va ashula (Nasr) yirik bo'limlaridan iborat bo'lib, cholg'u va ashula yo'llari turkumlarini tashkil etadi. Shashmaqom yetuk sozanda va xonandalar tomonidan o'zbek va tojik tillarida ijro etilgan (ashula yo'llarida mumtoz sharq shoirlari - Rudakiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz, Amiriy, Nodira, Zebunniso, Ogahiy va boshqalarning ishqiy-lirik, falsafiy, nasihatombuz, diniy mazmundagi she'rlari, shuningdek, xalq she'riyati qo'llanilgan). Yetakchi cholg'u - tanbur bo'lib, maqomlar ushbu cholg'u orqali sozlangan.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra Shashmaqomni muhofaza qilishda ilmiy-ijodiy va amaliy ishlar, ilmiy tadqiqotlar, nashrlar, ilmiy ekspeditsiyalar, filmlar, audio va video yozuvlar, radio va TV ko'rsatuvlari, maqom kechalari, "Nazm va Navo" konsertlari, ilmiy anjumanlar (Toshkent, 1975, 2014; Samarqand, 1978-1987, 2001-2007; Buxoro, 2013; Berlin, 2011-2013), yetuk ijrochilarning "ustoz-sinf" (master-klass) va boshqalar. Mustaqillik yillari muntazam ravishda Xalqaro va respublika miqyosida yosh maqom ijrochilari tanlovlari o'tkazilmoqda. Shashmaqom ijro an'analari konservatoriya, san'at va madaniyat instituti, pedagogik universitetlari; san'at kollejlari va akademik litseylari hamda musiqa maktablari o'quv jarayoniga kiritilgan va talaba-o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishni tizimli ravishda tashkil etish zarurati yuzaga chiqdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ў.Тошматов Ўзбекистон номоддий маданий мероси (дарслик) Тошкент: 2023.
2. Kirgizov, I., Kirgizov, I., Najmetdinova, M., & Atabayeva, S. (2022, February). THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. In *Archive of Conferences* (pp. 57-60).
3. I.I.Kirg'izov. Musiqa o'qituvchilarining manaviy yetuk shaxs bo'lib shakllantirishida axloqiy-estetik qadriyatlar uyg'unligi.

4. Abdurauf Fitrat. O'zbek klassik musiqa tarixi. Toshkent: 1997yil.